



MEASURES TO COMBAT THE WASTE PROBLEM IN UZBEKISTAN

N. Olimova¹

S. Boshbekova²

Jizzakh Polytechnic Institute

KEYWORDS

modern technologies,
environmental policy, the Law
'On Waste'

ABSTRACT

Regulation of relations in the field of implementation of waste-related works and conducting an environmental policy related to waste. Regulation of relations in the field of implementation of waste-related works and conducting environmental policy related to waste.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.10051137

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Assistant, Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan

² Student, Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan

O'ZBEKISTONDA CHIQINDI MUAMMOSI QARSHI KURASHISH CHORALARI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

zamonaviy texnologiyalar,
ekologik siyosat,
"Chiqindilar to'g'risida"gi
qonun

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda chiqindilarga oid ekologik siyosat yuritish. Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda chiqindilarga oid ekologik siyosat yuritish.

Bugungi kunda dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'ngi yillarda maishiy va sanoat chiqindilari yildan-yilga ko'payib boryapti. Ayniqsa, XXI asrda maishiy chiqindilar hajmining o'sishi ekologik barqarorlikka juda katta salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Ishlab chiqarish sohasini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va qayta jihozlash natijasida atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning miqdori 2,1-martaga, oqava suvlarning tashlanishi 2 martaga kamaydi.

Shu bilan birga, bu borada o'tkazilgan tahlil natijalari atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning mavjud emasligi, shuningdek, qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish uchun tabiatni muhofaza qilish organining vakolatlari yetarli emasligidan dalolat beradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "To'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarda tizimlashtirilishi va unifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ga kiritilgan yangi tahrirdagi "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasida o'z aksini topgan.

Mazkur hujjat chiqindilar bo'yicha muammolarni hal etishda amalga oshiriladigan ishlarning strategik yo'nalishi va muvofiqlashtirishning asosi bo'lib

xizmat qiladi. Bu jarayonda asosiy e'tibor avvalo, chiqindilarni boshqarish sohasidagi davlat siyosatini va harakatlar samaradorligini oshirishga va ularni qisqartirishga, imkon darajasida ulardan qayta foydalanish hamda ikkilamchi qayta ishlashga qaratilgan.

Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda chiqindilarga oid ekologik siyosat yuritish maqsadida amaldagi bir qancha normalarning eskirgani sababli yangi tahrirdagi "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda. Qonunning asosiy vazifasi chiqindilarning fuqarolar hayotiga va sog'lig'iga, atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish hamda chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirishdan iboratdir. Shuningdek, qonun loyihasida chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish borasida aniq vakolatli davlat organini belgilash ko'zda tutilmoqda. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, sohada faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga shart-sharoit yaratib berish, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash, maishiy ro'zg'or chiqindilarini utilitatsiya qilishni tashkil etgan holda atrof-muhitga, insonlar sog'lig'i va mulkiga salbiy ta'sirini kamaytirish bilan bog'liq me'yorlar belgilanyapti. Chiqindilarni qayta ishlash sohasini rivojlantirishda iqtisodiy usullardan foydalanishni yo'lga qo'yish, xorijiy investitsiyalarga yo'l ochish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hisobiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini himoyalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan islohotlar yanada izchil davom etishi, chiqindilar bo'yicha muammolarni hal etishda amalga oshiriladigan ishlarning huquqiy asoslari mustahkamlanishi fraksiyamiz elektorati manfaati nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Hozirda mazkur qonun loyihasini yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

Yangi tahrirdagi "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari takomillashtirishga, chiqindilar qayta ishlanishi rivojiga, eng muhimi, ekologik madaniyatning yuksalishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, bugungi kunda tabiatga chiqarilayotgan qattiq, gazsimon hamda suyuq holatdagi chiqindilar global ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu masala XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ekolog olimlar nazaridagi masalalardan bo'lishiga qaramay, ularga barham berish yohud ekologik barqarorlikka erishishda u qadar samara kuzatilmayapti. Dolzarb ahamiyati ortib borayotgan global ekologik muammolar va bunda chiqindi masalasi kelajak avlodning sog'lom turmush tarziga xavf tug'dirishi aniq. Bu masalaga jiddiy qarash

lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlanova M. Har bir islohot avvalo shaxsning o'zidan boshlanadi. <https://ekolog.uz/?cat=25>
2. Rafiqov A., Abirqulov, A., Xojimatov N. Ekologiya: o'quv qo'llanma - T.: TDIU,
3. 2004 - 144 bet.
4. Rahmatov S. Chiqindi — koni zarar qayta ishlansa, katta boylik.
5. <https://parliament.gov.uz/upload/iblock/0d7/CHIQINDI-ipzbhu.arlwgngd.pdf>
6. <https://kun.uz/news/2022/02/02/chiqindi-muammosi-boyicha-yangi-choralarbelgilandi>
7. <https://huquq.uz/2022/08/25/inson-va-chikindilar-sajjoramiz-kimga-koladi/>
8. Наргиз О., Зарина Б. ПЕРИОД ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ И ВЫСОКОГО КАЧЕСТВА ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ //Журнал академических исследований и тенденций педагогических наук. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 410-413.
9. Олимова Н. и др. Движение пылевых потоков в пылеулавливающем оборудовании, траектории и динамика капель на основе технических характеристик пылеулавливающей камеры //Сеть конференций E3S. – EDP Sciences, 2023. – Т. 434. – С. 03027.
10. Алиева Р. и др. Кислотостойкие покрытия из жидкого стекла с использованием отходов производства кальцинированной соды //Сеть конференций E3S. – EDP Sciences, 2023. – Т.
11. Гуламовна О.Н. Исследования, проведенные с целью повышения эффективности пылеулавливающего оборудования на хлопкоочистительных предприятиях //Техасский журнал техники и
12. Gulovna O. N. Technological Processes of Dust Cleaning At Ginneries //Eurasian Journal of Engineering and Technology. – 2023. – Т. 19. – С. 31-34. технологий. – 2023. – Т. 21. – С.
13. Авалбаев Г. А., Алиева Р. А., Сорабекова М. Основы массообмена между твердым телом и газожидкостной смесью //Журнал современной философии, социальных и гуманитарных наук. – 2023. – Т. 17. – С. 67-71. 17-21.
14. Бобоев С. М., Олимова Н. Г. ИССЛЕДОВАНИЕ ВЕНТИЛЯЦИОННОЙ СЕТИ И ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЫЛЕУЛАВЛИВАЮЩЕГО ОБОРУДОВАНИЯ НА ХЛОПКОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ //Vestnik

Volgogradskogo Gosudarstvennogo Arhitekturno-Stroitel'nogo Universiteta. Seriya: Stroitelstvo i Arhitektura. – 2022. – №. 88.

15. Olimova N. et al. Dust flow motions in dust collection equipment, droplet trajectories and dynamics based on the dust collection chamber's technical characteristics //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 434. – C. 03027.